

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafu Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Botir Elov, Oqila Abdullayeva, Mastura Primova

O'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlashdagi morfologik, sintaktik va semantik tahlil metodlari.....6

Günay Babayeva

Dil biliminde toplumsal cinsiyeti ifade eden kelimeler.....49

Adabiyotshunoslik

Zarina Rahmonova

Alisher Navoiy ga'zallarida poetik sintaksis hodisasi (professor Bahodir Sarimsoqov tadqiqotlari asosida).....64

Lütviyyə Əsgərzadə

Qulu Ağsəsin şeir – mətnlərinin analizi və yorumlanması.....78

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

O'rta asrlardagi O'zbekiston xaritasi.....93

San'at

Sevda Beheshti

Navoiy she'riyatining miniatyuralarda aks etishi (Eron fondlaridagi miniatyurali qo'lyozmalar asosida).....125

CONTENT

Linguistics

Botir Elov, Oqila Abdullayeva, Mastura Primova

Morphological, Syntactic, and Semantic Analysis Methods in
Natural Language Processing in Uzbek.....6

Gunay Babayeva

Words expressing Gender in linguistics.....49

Literature

Zarina Rahmonova

The Phenomenon of Poetic Syntax in Alisher Navoi's Ghazals (Based
on the Studies of Professor Bahodir Sarimsoqov).....64

Lutviyya Asgarzada

Analysis and Interpretation of Gulu Agses' Poetry-texts.....78

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Map of Uzbekistan in the Middle ages.....93

Art

Sevda Beheshti

Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A Study of
Illustrated Manuscripts Preserved in Iranian Collections).....125

TARIX. MANBASHUNOSLIK
HISTORY. SOURCE STUDIES

O'rta asrlardagi O'zbekiston xaritasi

Shamsiddin KAMOLIDDIN¹

Vasilios Vatatzis xaritasi

Abstrakt

Maqolada yunon sayohatchisi Vasilios Vatatzisning 1732-yilda Londonda nashr etilgan Markaziy Osiyo xaritasi "Charta, in qua cruditis spectanda exhibetur pas Asiae [...] Tabula Maris Caspii et Maris Aral" ("Kaspiy dengizi va Orol dengizi xaritasi") haqida so'z yuritiladi. Yunon va lotin tillaridagi yozuvlarga juda ham boy bo'lgan bu noyob ikki tilli xaritaning taxminan 1730-yilda chizilgan asl qo'lyozma nusxasi Buyuk Britaniyadagi The Royal Geographic Society ("Qirolik Geografik Jamiyati")-ning xaritalar xazinasida saqlanadi. Vasilios Vatatzis 1727 – 1730-yillarda Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat qilib, yunon tilida sayohatnoma ham yozib qoldirgan. Jurnalning o'tgan yilgi sonlaridan birida biz ushbu safarnoma va undagi ma'lumotlar haqida so'z yuritgan edik. Ushbu xaritada keltirilgan izohlar esa safarnomadagi ma'lumotlarni to'liq tasdiqlaydi va ayrim yerlarda safarnomadagi ma'lumotlarga aniqlik kiritadi. Shu bilan birga xarita alohida va mustaqil manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zak so'zlar: *O'rta Osiyoga sayohat, tarixiy xaritalar, Buxoro imperiyasi, O'zbekiston mamlakati, Sayboniylar davlati.*

Kirish

Vasilios Vatatzis safarnomasida Buyuk Britaniyadagi Oksford universitetiga o'z qo'li bilan chizgan Markaziy Osiyo mintaqasi tasvirlangan xaritasini sovg'a qilgani haqida yozgan [Legrand 1886, 225]. Emil Legrand o'zining so'z boshisida yozishicha, Vasilios Vatatzis ushbu xaritani 1732-yilda Londonda bo'lgan chog'ida nashr ettirgan. Hozirgi kunda ushbu xaritaning nashr etilgan nusxalari juda

¹Shamsiddin Kamoliddin Sirojiddin o'g'li – tarix fanlari doktori, professor, Oriental uinversiteti.

E-pochta: shamskamol@gmail.com


ORCID ID: 0000-0003-2469-8717

Iqtibos uchun: Kamoliddin, Sh. S. 2025. "O'rta asrlardagi O'zbekiston xaritasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 93 – 124.

kamyob hisoblanadi. Oksford universitetiga taqdim etilgan xarita hozir u yerdagi Bodlean qo'lyozmalar xazinasida yo'q. Londondagi Britaniya Muzeyi (The British Museum)da xaritaning 2 ta nusxasi saqlanib qolgan, ulardan biri qo'lda chizilgan bo'lib, xaritalar jamg'armasida 10075 raqam ostida saqlanadi. Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi (Bibliothèque Nationale, Paris)da ushbu xarita nashrining 3 ta nusxasi saqlanadi. Birinchi xarita (raqami S 2206)-ning chap va o'ng tomonlarida yunon va lotin tillaridagi izohlar berilmagan. Bu xarita ancha yomon holda saqlangan. Ikkinchi xarita (raqami AD109)da yozuvlar to'laligicha saqlangan, biroq uning saqlanish holati yomon. Uchinchi xarita (raqami AD109 double) juda chiroyi chizilgan va yaxshi saqlangan. Xaritaning asli, ya'ni qo'lyozma nusxasi charm ustiga chizilgan bo'lib, o'sha holatda toshbosma qilinmagan [Legrand 1886, 188 – 189]. Xaritaning yana 2 ta nusxasi Yunonistonda Afina shahridagi Gennadius Library kutubxonasida va Institute for Neohellenic Research / National Hellenic Research Foundation institutida saqlanadi [Sariyannis 2014, 48].

Xaritadagi yozuvga ko'ra, Vatatzis Londonga 1732-yil oktyabr oyida kelgan va o'zining xaritasini The Royal Geographic Society ("Qirolik Geografik Jamiyati")ga sovg'a qilgan. U yana Jamiyatga Badaxshondan qazib olingan 830 va 870 karatli 2 ta yirik yoqut toshlarini ham sovg'a qilib, ularni Buxoro xonidan sotib olganligini aytgan. Yoqut toshning bu turi turklarda *La'l*, italiyaliklarda *Balasia*, boshqa yevropaliklarda esa *Rubis Balais* deb atalgan. O'sha yilning o'zida V. Vatatzis xaritasi o'rganish uchun londonlik xaritashunos olim Doktor Xalliga beriladi, keyin esa Qirolik Geografik Jamiyatining kartografi Jon Seneks (John Senex) unga ishlov berib, nashr etadi. Xaritadagi yozuvga ko'ra, bu xarita Buyuk Britaniyada nashr etilgan O'rta Osiyoning birinchi xaritasi bo'lgan ekan.

Vasilios Vatatzisning 1732-yilda Londonda nashr etilgan Markaziy Osiyo xaritasi "*Charta, in qua cruditis spectanda exhibetur pas Asiae [...] Tabula Maris Caspii et Maris Aral*" ("Kaspiy dengizi va Orol dengizi xaritasi") deb ataladi [Batatzis 1732]. Yunon va lotin tillaridagi yozuvlarga juda ham boy bo'lgan bu noyob ikki tilli xaritaning taxminan 1730-yilda chizilgan asl qo'lyozma nusxasi Buyuk Britaniyadagi The Royal Geographic Society ("Qirolik Geografik Jamiyati")ning xaritalar xazinasida (RGS, mrAsia Div. 464), uning nashr etilgan nusxalari esa The British Library ("Britaniya Kutubxonasi")ning xaritalar bo'limida (BL, Maps, Kings Topographical Collection, 114, 53), shuningdek, Yevropaning boshqa kutubxonalarida va xususiy jamg'armalarda saqlanadi [Kamoliddin



Xaritadagi yozuvlar

Vasilios Vatatzis xaritasining asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning ikki yonida, tepasi va pastida, shuningdek, ichida yunon va lotin tilidagi yozuvlar ko'p. Bu yozuvlarda Vatatzis sayohati, xarita va unda tasvirlangan yerlar bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Xaritadan tepada uning tashqarisidagi 2 ta yozuvda xarita, uning muallifi va sayohatlari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Bu yozuvlar xaritaning tepasida uning chap burchagidan o'ng burchagigacha cho'zilgan. Yunon tilidagi birinchi yozuv deyarli 4 yarim qator, lotin tilidagi ikkinchi yozuv esa 3,5 qatordan iborat. Ikkala yozuvning mazmuni bir. Quyida lotincha yozuv va uning tarjimai keltiriladi:

(1) *“Charta, in qua cruditis spectanda exhibetur pars Asiæ quam obvaria viarum pericula et immensos itineris labores, nemini peregrinatorum hucusque contigit oculis videre, et extestimonio oculorum quodam (2) modo explicare, nunc primum typorum ope publici juris facta a me Basilio Batatzi magni quondam Santæ in Christo*

magnæ ecclesiæ Constantinopolitanæ Æconomi silio. Siquidem volubilis humana- (3) rum rerum cursus, tum mea propria condition semper alias ex alijs permutationes passa, in causâ fuere ut non modo multas antea et gentes et terras viderim, sed et jam prædictam partem Asiæ ab Anno 1727, (4) usque ad 1730 lustraverim, nunc verò celebratissimæ magnæ Britanniæ spectator sim”.

Tarjima¹:

(1) “Ushbu xaritada tasvirlangan Osiyoning bir qismini ko‘p ziyoratchilar safar davomida yo‘lda uchratgan xavf-xatarlar va boshidan kechirgan azob-uqubatlarga qaramasdan o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlar yoki o‘zlari ko‘rmagan bo‘lsalar ham u haqida yozganlar. Endi esa (2) [bu mintaqa] ilk bor Konstantinopoldagi Muqaddas va Buyuk nasroniy cherkovi sobiq bosh ruhoniysining o‘g‘li Vasilios Vatatzis tomonidan chizilgan va nashr etildi. Bu faqat inson tabiatining yurishi (3) har doim o‘zgarib turishi tufayli emas, balki mening shaxsiy sharoitim har doim turlicha bo‘lganligidandir. Shu sabab men nafaqat ko‘p xalqlar va ko‘p yerlarni ko‘rdim, balki 1727-yildan 1730-yilgacha Osiyoning bu qismi bo‘ylab (4) sayohat qildim, va juda mashhur bo‘lgan Buyuk Britaniyani ziyorat qildim”.

Xaritaning ichida chap burchakda chapdan o‘ngga alohida 2 ta yozuv joylashgan; yunon tilidagi birinchi yozuv 12 qatordan, lotin tilidagi ikkinchi yozuv 12 yarim qatordan iborat. Bu ikkala yozuvning mazmuni bir xil:

(1) *“Ab A. usque ad B. linea, spatium est, quod quatuor decem dicbus pertransivimus (2) et ad quod reliquorum locorum itinerariæ distantia terminantur si non quidem accurate (3) (quipped quod terrestres Itineris provarietate locorum differentia omnibus mani (4) festa est) sed neque etiam omnino inaccuratè; exceptis tamen in deferto fere (5) campo regionibus Nomadicarum gentium. Hæ enimsæpe ex pertinentibus a (6) ad ipsas regionibus longius excurrunt hyeme, quidem ad meridiem, vere au (7) tem incunte ad septentrionem. Dicendum et hoc est, etsi Baskinorum, Tur- (8) phani, et Zophchani loca, tum Calmucorum tribus, Paulo ultra designates hio (9) terminos procurrun, hunc tamen illuc usque pertinientem campum unumesse (10) et notatarum in hai chartâ gentium constantem habitationem neque ullam (11) externam gentem intermediam reporiri, quamvis ipsæ sesebellis invicem (12) appellant ulteriora verò loca ad meum sermonem haud pertinent. Itaque (13) aliis explicanda reliuque”.*

¹Xaritadagi barcha yozuvlar Shveysariyadagi Syurix universiteti professori Andreas Kaploni yordamida tarjima qilindi. Uning bu ko‘rsatgan yordami va hamkorligi uchun men unga o‘zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

Tarjima:

“A [nuqta]dan B [nuqta]gacha biz 14 kunda yurib o'tgan yo'l ko'rsatilgan, va unga qarab, aniq bo'lmasa ham, yo'limizning boshqa yerlaridagi masofalarni aniqlash mumkin, chunki butun hududning turli yerlaridan o'tgan yo'lning farqli ekanligi hammaga ma'lum. [Shu sabab] ular har tomonlama aniq emas. Faqat ko'chmanchi xalqlar [yashagan] yerlar bundan istisno, [chunki] bu hududning deyarli hammasi cho'llardan [iborat]. Bu xalqlar bu hududga boshqa yerlardan tez-tez ko'chib turadilar, ba'zilar janubga, ba'zilari esa shimolga. Shuni ham aytish kerakki, Turfan (*Turphani*) va Zobxan (*Zophchani*) [viloyatidagi] *Baskinorum* yerlari va qalmuq (*Calmucorum*) qabilalarining [yerlari] bu yerda belgilangan hududdan tashqariga ham chiqadi. Bu yerdan ushbu xaritada ko'rsatilgan [boshqa] xalqlarning yerigacha birorta odamlar doimiy yashaydigan yer, va bir-biri bilan urush qilayotgan birorta vositachi ham topilmaydi. Aslida bu yerlar mening [safari]ga taalluqli emas. Shuning uchun bu [masala]ni boshqalarga qoldiramiz”.

Xaritadan pastda uning tashqarisida 2 ta yozuv joylashtirilgan; chap tomondagi 8 qatordan iborat birinchi yozuv yunon tilida, o'ng tomondagi 8 yarim qatordan iborat ikkinchi yozuv esa lotin tilida. Bu ikkala yozuvning mazmuni bir xil:

(1) *“Attamen plerasque has gentes, quae breviter sed diligenter a me descriptæ sunt, (2) siquis attenté consideretearumque mores perpendat, cas admirabundus ob- (3) servabit non procul ajusto, et aratione secundum naturam vivere, quin potius (4) sibi invecem condolere, et bono, ac propenso animo ferri. Quæ quidem ego (5) observando, sæpe mecum dixi, atque etiamnum dico. Papæ qualium virtutum (6) ignari Barbari isti homines, eas tamen moribus effingunt, quæ magis ge- (7) nerosos et rationem excolentes decent! ecce hæ barbaræ gentes ut dictum (8) est, ex pudore solo, ae consuetudine, ejusmodi virtutes colunt, quas plerique (9) eorum pertotam vitam repræsentant”.*

Londini

Anno 1732 in mense Octobri

Tarjima:

“Lekin kimdir men qisqa, lekin aniq ma'lumot bergan bu xalqlarning ko'pchiligiga diqqat qilib, ularning urf-odatlariga nazar solsa, ular o'zlarining an'anasi bo'yicha yashayotganini [ko'rib], hayron qoladi, va o'zi buni istamasa ham, ularga xayrixoh va hatto do'stona munosabatda bo'lsa ham, ularga ayanch bilan qarashni boshlaydi. Men ko'p marta kuzatgan, o'zimga [ko'p marta] aytgan, va hozir ham yana bir bor aytadigan narsa shuki, o'sha badaviy

xalqlar Papaning fazilatlarini bilmaydilar, lekin shunga qaramay, ular o'zlarini shunday tutadilarki, bunday [axloq] ulardan ko'ra oliyjanob va donishmand bo'lgan odamlarga xosdir. Bu badaviy xalqlar, bir [odam] ning aytishicha, uyalish va havas qilish nimaligini bilmaydilar, saxovatlidirlar, va ularning ko'pchiligi bir umr shu tarzda yashaydilar”.

Londonda [yozildi], 1732 [yil], oktyabr oyi.

Yunon tilidagi yozuvning o'ng tomonida ikki yozuv o'rtasiga yaqin yerda Buxoro tangasining old va orqa taraflari tepadan pastga tartibda tasvirlangan. Suratlarining tepasida yunoncha, pastida esa lotincha yozuvlar joytashtirilgan: *Buchariae aureus nummis*. Xarita chetlaridagi № 9 raqamli izohlovchi yozuvga ko'ra, bu Buxariya (*Bucharia – Μπωχαρία*) ning Abu-l-Fayzxon (*Abulfaizchan*) ismli xoni (*Chanis*) zarb ettirgan siniq oltin tanganing surati bo'lib, unga tobe bo'lgan odamlar uni “podshoh” (*Padischah*) deb atar edilar (47-betning 47-23-24, 32-33 qatorlariga qarang).

Lotin tilidagi yozuvning chap tomonida ikki yozuv o'rtasiga yaqin yerda Xiva tangasining old va orqa taraflari tepadan pastga tartibda tasvirlangan. Suratlarining tepasida yunoncha, pastida esa lotincha yozuvlar joylashtirilgan: *Chivae aeneus nummis*. Xarita chetlaridagi № 12 raqamli izohlovchi yozuvga ko'ra, bu Elbarsxon (*Elbars Chan – Ελμπαρσχαν*) ismli Xiva (*Chiva – Χίβα*) xonining mis tangasining suratidir (49-betning 49-19-20, 26-27-qatorlariga qarang).

Ikki yozuvning qoq o'rtasida Buxoro va Xiva tangalarining orasida ichida arabcha yozuvli to'rtburchak shakldagi muhr surati, muhrning pastida esa 1 qator yunoncha va 1 qator lotincha yozuvlar joylashgan: *Diploma a Dortzi* – “Dortzining xati”. Muhrning tepasida qalmiq (uyg'ur) yozuvi bilan qo'lda yozilgan 4 qatordan iborat yozuv joylashgan. Ushbu yozuvning dastlabki o'rganilishi uning tili turkcha yoki qalmiqcha ekanligini aniqlashga imkon berdi.¹

Xaritadan chapda va o'ngda tepadan pastga har biri 96 qatordan iborat bosma harfli yunoncha va lotincha yozuvlar joylashtirilgan. Ikkala yozuvning tepasida: *Gentius & Urbium in charta numeris notatarum brevis Explicatio* – “Xaritada raqamlar bilan ko'rsatilgan xalqlar va shaharlarga qisqacha izohlar”, deb yozilgan. Ikkala yozuvda xaritada belgilangan raqamlarga izohlar berilgan. Bu

¹Bu yozuv Istanbul universiteti qoshidagi Turkiyot institutining mudiri professor Usmon Sertkaya yordamida o'qildi. Buning uchun men unga o'zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

izohlarni biz xaritaning tavsifidagi tegishli yerda, u yoki bu xalq yoki shahar haqida so'z ketganda keltiramiz.

Kaspiy dengizi

Kaspiy dengizi (ΘΑΛΑΣΣΑ ΚΑΣΠΙΑ – *Mare Caspium*)ning ko'rinishi umuman olganda uning haqiqiy, ya'ni hozirgi zamon xaritasidagi shakliga o'xshash, lekin to'liq mos kelmaydi.¹ Xususan, Qorabo'g'oz (καρά μπογαζ – *Cara bogaz*) qo'ltig'i bu xaritada ancha kichik ko'rsatilgan, uning sharqiy sohili esa aniq berilmagan. Manqishloq (μιν κισλακ – *Minkislac*) yarim orolining ko'rinishi ham uning haqiqiy shakliga to'g'ri kelmaydi.

Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy burchagida μιν κισλακ – *Minkislac* (Manqishloq) yarim oroli yonida xaritada ΓΝΙΛΟΙ ΖΑΛΙΒ (*Gniloy zaliv*), ya'ni "Chirkin qo'ltiq" nomli qo'ltiq ko'rsatilgan. Manqishloq yarim orolidan janubda dengizning sharqiy *άλξανδρι μπαλχ* – *Alexandri Balch* (Aleksandr Balxi) nomli qo'ltiqcha, undan janubda esa *καρά μπογαζ* – *Carabogaz* (Qorabo'g'oz) qo'ltig'i joylashgan. Undan janubda dengizda katta burun ko'rsatilgan, uning yonida dengizning bir qismi nuqtalar bilan qoplangan, bu nuqtalar qumloq sayozlikni bildirishi mumkin. Bu hudud bo'ylab tepadan pastga *κράσνι βοδά* – *Crasniboda* (*Krasnaya voda*), ya'ni "Qizil suv" deb yozilgan. Undan janubda ΜΡΑΛΧΑΝ (Balxan) qo'ltig'i joylashgan. Undan ham janubda nomi berilmagan qo'ltiq bo'lib, uning sharqiy sohili ko'rsatilmagan.

Kaspiy dengizining shimoli-g'arbiy sohilida *βολγα* – *Volga* (Volga) daryosining quyilish yerida ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan* (Astraxan) shahri yonida orollarga to'la katta qo'ltiq ko'rsatilgan. *Volga* (Volga) daryosining quyilish yeri bilan *Axan* daryosining quyilish yeri orasida dengizning g'arbiy sohilida 2 ta nomi yo'q qo'ltiqcha ko'rsatilgan. *Axan* daryosining quyilish yeridan pastroqda yana nomi yo'q qo'ltiq joylashgan. *Κιωρ* – *Kur* (Kura) daryosining quyilish yeridan pastda ham nomi yo'q qo'ltiqcha ko'rsatilgan.

Kaspiy dengizining janubiy sohilida ΚΙΑΑΝ viloyatidagi Ρεστ – *Reschd* shahri yonida nomi yo'q qo'ltiq ko'rsatilgan. Kaspiy dengizining janubi-sharqiy burchagida *Αστραμρατ* daryosining quyilish yeri yaqinida ΑΣΤΑΡΑΜΠΑΤ viloyatida ham nomi yo'q

¹O'rta asr xaritalarida yer sathidagi farqlar, tabiiy suv havzalarining qirg'oqlari va ulardagi orollarning shakli taxminiy ko'rsatilgan. XIX asr o'rtalarida maxsus qurilmalar yordamida olib borilgan aniq geodezik o'lchovlar asosida xaritalar tuzila boshlagan. Zamonaviy xaritalar ham ana shunday o'lchovlar asosida tuzilgan. Shuning uchun ularda ko'rsatilgan u yoki bu suv havzasining qirg'oqlari va ulardagi orollarning shakli aniq ko'rsatilgan va aerofotosurat ma'lumotlariga to'liq mos keladi.

qo'ltiq ko'rsatilgan.

Kaspiy dengizida bir nechta yarim orollar mavjud. Ulardan biri – *Minkislac* – *μιν κισλακ* (Manqishloq) dengizning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan. Bu yarim orol hozir ham shunday ataladi. Undan janubda sharqiy sohilda nomi yo'q yarim orol joylashgan. MPAKOU – *Baku* (Baku) shahri joylashgan uchinchi yarim orol Kaspiy dengizi g'arbiy sohilining o'rta qismidir. Hozir bu yarim orol Apsheron deb ataladi. Janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa cho'zilgan tor va uzun quruqlik shaklidagi yana bir nomlanmagan yarim orol g'arbiy sohilda Volga daryosining quyilish yeri bilan Baku (MPAKOU – *Baku*) shahrining yarim oroli oralig'ida, Axan (*Axan*) daryosining quyilish yeridan janubda joylashgan.

Kaspiy dengizida bir nechta orollar ham ko'rsatilgan. Dengizning shimoliy qismidagi qo'ltiq qarshisida Volga (*Volga*) daryosining quyilish yeri va Astraxan (ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan*) shahrining yaqinida bir qancha nolanmagan orollar joylashgan. Bir nechta nomi yo'q orollar Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy burchagida, Manqishloq yarim orolining qarshisidagi ΓΝΙΛΟΙ ΖΑΛΙΒ qo'ltig'ida bor. Manqishloq yarim orolidan janubda *κωλαλι* – *Kulali* nomli orollar joylashgan. Dengizning janubi-sharqiy qismida *Balxan* (ΜΡΑΛΧΑΝ) qo'ltig'iga kirish yaqinida katta nomlanmagan orol, uning tepasida esa 2 ta kichik orolcha ko'rsatilgan. Ularning pastida: *In. inhabitata a Turco mannis Ogurtz* – “bu [orol]da og'uz turkmanlari yashaydi”, deb yozilgan. Kaspiy dengizining g'arbiy qismida *Volga* va *Terki* (Terki) daryolarining quyilish yerlari oralig'ida 2 ta orol joylashgan bo'lib, ulardan biri nomlanmagan, ikkinchisi esa *τωλεν* – *Tulen* deb ataladi. *Axan* (Axan) daryosining quyilish yeridagi *Terki* (Terki) shahri qarshisida uzun yarim orol yaqinida *τζετζεν* – *Tzetzen* nomli 4 ta kichik orolcha joylashgan. Ular janubda Apsheron yarim orolidan shimolda *δυο αδελσοι* – *Dua Brati* nomli 2 ta kichik orolcha ko'rsatilgan. Apsheron yarim oroli qarshisida Baku (MPAKOU – *Baku*) shahriga yaqin yerda sohilga mos ravishda cho'zilgan 2 ta orol ko'rsatilgan (biri kattaroq, ikkinchisi kichikroq). Ularning pastida: *αξια Νησοι* – Solotoi Ostrov, deb yozilgan. Apsheron yarim oroli va Baku (MPAKOU – *Baku*) shahridan janubda ham bir nechta nomlanmagan orollar ko'rsatilgan. Ulardan janubda *Κιωρ* – *Kur* (Kura) daryosining quyilish yeri qarshisida yana bir nomlanmagan orol va 2 ta kichik orolcha ko'rsatilgan.

Kaspiy dengizining shimoliy sohilida *Volga* daryosining quyilish yeridagi ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan* (Astraxan) va *Γιαγκ* – *Faic* (Ural) daryosining quyilish yeridagi *Γιωργι Γοροδ* – *Iurgi gorod* (?)

shaharlarida dengiz qo'nalg'alari joylashgan.

Kaspiy dengizining janubiy sohilida *ασταρμπαδ* (Astrobod) daryosining quyilish yeridan g'arbda *ασταρ* – ΑΣΤΑΡΑΜΠΑΤ (Astrobod), ΜΙΖΑΝΔΑΡΑΝ viloyatida *μπαλφρός* – *Balfros*, ΤΟΥΝΙΚΑΡΑΝ viloyatida *άμιλ* – *Amil*, va ΚΙΛΑΝ tog'li o'lkasida Reschd nomli shaharlar joylashgan.

Kaspiy dengizining g'arbiy sohilida faqat 3 ta shahar ko'rsatilgan: ΜΡΑΚΟΥ – *Baku* (Baku), ΔΕΡΜΠΕΝΤ – *Derbent* (Darband) va *τερκι* – *Terki* (Terki). Oxirgisi dengiz bo'yida emas, balki *αξαν* – *Axan* daryosi havzasining yuqorirog'ida, uning chap qirg'og'ida joylashgan. Dengiz qo'nalg'asini anglatuvchi langar shaklidagi maxsus belgi Darbanddan janubda, *Γιαζοβα* – *Giazoba* daryosining quyilish yerida ko'rsatilgan. Bu yerdan boshlangan dengiz yo'li Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi ΚΙΛΑΝ viloyatidagi *Reschd* qo'nalg'asidan *Baku* (ΜΡΑΚΟΥ – *Baku*) qo'nalg'asi orqali shimoliy sohildagi *Astraxan* (ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan*) qo'nalg'asiga olib boruvchi asosiy dengiz yo'liga ulangan. Darbanddan janubda joylashgan bu dengiz qo'nalg'asidan janub tomon Kaspiy dengizining g'arbiy va janubiy sohillari bo'ylab O'rta Osiyoga ketuvchi karvon yo'li boshlangan. Aftidan, bu dengiz qo'nalg'asi yonida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan oraliq savdo markazi joylashgan. Kaspiy dengizining sharqiy sohilida hech qanday shaharlar yoki dengiz qo'nalg'alari ko'rsatilmagan.

Orol dengizi

Vasilios Vatatzis bir oyga yaqin vaqt davomida Orol dengizi (ΘΑΛΑΣΣΑ ΑΡΑΛ – *Mare Aral*) ni maxsus aylanib, uning atroflaridagi barcha yerlarni o'rganib chiqqan. Natijada u mazkur suv havzasining aniq suratini chizgan, va eng muhimi, birinchi bo'lib Amudaryo Orol dengiziga quyilishini aniqlagan. Ungacha esa Yevropadagi geograf olimlar bu daryo Kaspiy dengiziga quyiladi, deb bilganlar. Chunki ular Orol dengizini Kaspiy dengizining bir qismi deb o'ylaganlar. Vatatzis shuni aniqlaganki, Kaspiy va Orol dengizlari orasida katta qumli cho'l joylashgan bo'lib, bu cho'l janub va sharq tomonga davom etgan. Vatatzisgacha Yevropada chizilgan deyarli barcha Osiyo xaritalarida Orol dengizi ko'rsatilmagan. Vatatzis xaritasidan keyin Yevropada chizilgan barcha xaritalarda esa Orol dengizi ko'rsatilgan.

Boshqa xaritalarda Orol dengizi tuxum shaklida, uning qirg'oqlari esa taxminiy tarzda ko'rsatilgan. Vatatzis xaritasida esa Orol dengizining qirg'oqlari ancha aniqroq va haqiqatga yaqin

shaklda chizilgan. Uning g'arbiy qismida kichik bir qo'ltiq, uning o'rtasida esa kichik bir orol ko'rsatilgan.

Orol dengizining ichida yunoncha ΘΑΛΑΣΣΑ ΑΡΑΛ (Orol dengizi) degan yozuvning tagida 2 qator yunoncha va 3 qator lotincha yozuvlar joylashtirilgan bo'lib, ularning mazmuni bir xil: "Orol dengizi (*Mare Aral*) aylanasini bir oy davomida piyoda kezib chiqish mumkin. Uning suvi boshqa dengizlarnikidek juda ham sho'rdir".

Tog'lar

Tog'lar xaritada juda ham shartli ravishda ko'rsatilgan, ularning balandligidagi farq deyarli bilinmaydi: Orol dengizi atroflaridagi va Kaspiy dengizidan janubi-g'arbdagi unchalik yuksak bo'lmagan balandliklar tog'cha shaklidagi belgi bilan berilgan. Hindukush, Tangritog', Pomir va Oloy tog' tizmalarining yuksak cho'qqilari ham xuddi shu, faqat biroz yirikroq belgi bilan berilgan. Xaritada aks ettirilgan deyarli barcha tog'lar nomsiz ko'rsatilgan. Faqat Tangritog' tizmasi bo'ylab shimoldan janubga ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ deb yozilgan, lekin bu ham tog'larning emas, xalq nomidir.

ἰρτίς – *Irtis* (Irtish) daryosidan janubda shimoldan janub tomonga yo'nalgan tog' tizmasi tasvirlangan bo'lib, uning yonbag'irlariga tepadan pastga ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ deb yozilgan. Uning joylashuviga ko'ra, bu yerda Tangritog' tizmasi ko'rsatilgan. Tog'lar orasida bir necha yerda ko'chmanchi qabilalarning o'tovlari tasvirlangan. Janubda bu tog' tizmasi boshqa bir tog' tizmasi (Pomir-Oloy tog' tizmasi) bilan ulangan, bu tog' tizmasi ham janub tomonga davom etib, xaritaning janubi-sharqiy burchagigacha yetadi, u yog'iga esa Hindiston yerlari boshlanadi. Bu yerdan mazkur tog' tizmasi g'arb tomonga davom etib (Hindukush tog'lari), Kaspiy dengizigacha (Turkman-Xuroson tog'lari) va uning janubiy sohiligacha (Elburs tog'lari) cho'zilgan. Safarnomada Hindistongacha cho'zilgan bu tog' tizmasi Taurus (*Taurus*) deb atalgan [Legrand 1886: 219]. Kaspiy dengizining g'arbiy sohili bo'ylab ham tog' tizmalari (Kavkaz tog'lari) cho'zilgan, sharqiy sohilda esa tog'lar Balxan qo'ltig'i sohillari bo'ylab cho'zilgan (Balxan tog'lari), va janubiy sohil bo'ylab davom etib, asosiy tog' tizmasi (Elburs) bilan qo'shib ketgan. Orol dengizining atroflarida ham uncha baland bo'lmagan tog'lar bo'lib, ular ko'lining sharqiy, shimoliy va shimoli-g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan.

Cho'llar

Vasilios Vatatzis xaritasida O'rta Osiyo mintaqasining ko'p

qismini ko'chmanchi qabilalar yashovchi cho'llar (Qizilqum va Qoraqum) egallagan. Faqat ayrim belgilar u yerlarda o'troq aholi yashovchi manzillar ham borligidan dalolat beradi.

Yevropa geograf olimlari XVII asrdayoq bu ulkan cho'llar haqida ma'lumotga ega edilar [Юрай 1966: 13]. Lekin aytish mumkinki, Vasilios Vatatzis bu cho'llar haqida o'zining shaxsiy kuzatuvlari asosida ma'lumotga ega bo'lgan. Uning safarnomasida yozilishicha, u Astraxan shahridan karvon bilan yo'lga chiqib, Xorazm va Buxoroga qadar yurgan va, tabiiyki, bu cho'llarni kesib o'tgan. Xaritaga ko'ra bu cho'llarda qalmiqlar (ΚΑΛΜΟΥΚΟΙ), no'g'aylar (ΝΟΓΑΟΙ), boshqirdlar (ΜΡΑΣΚΙΡΟΙ), qoraqalpoqlar (ΚΑΡΑΚΑΛΠΑΚΟΙ), qozoqlar (ΚΑΖΑΚΟΙ), orollar (ΑΡΑΛΟΙ) singari ko'chmanchi qabilalar yashagan. Vatatzis ular haqida o'zining safarnomasida ham ma'lumot keltirgan.

Ko'llar

Ἰρτίς – *Irtis* (Irtish) daryosidan janubda nomlanmagan ko'l (Balxash) joylashgan bo'lib, unga janub tomondan *Ἰλία* – *Iliia* (Ili) nomli daryo quyiladi. Ko'l va daryo hamma tarafdin ko'chmanchi qabilalarning o'tovlari bilan qurshalgan. Ko'ldan shimoli-sharqda va *Ἰρτίς* – *Irtis* (Irtish) daryosidan janubda *Μελοε ὄζερο* – *Beloe Ozero* (*Beloye ozero*), ya'ni "Oq ko'l" nomli ko'l joylashgan bo'lib, u Qozog'iston viloyatidagi Zaysan ko'lga to'g'ri keladi.

ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ (Tangritog') tog' tizmasining o'rta qismida tog'lar orasida yana bir nomlanmagan ko'l (Issiq ko'l) bo'lib, uning janubiy qirg'og'ida *Γίρκεν* – *Girken* (Girken), ya'ni Yorkent nomli shahar joylashgan. Bu ko'lni ham hamma tarafdin ko'chmanchi qabilalarning o'tovlari qurshab turibdi.

Xaritaning eng sharqiy qismida ΚΑΣΚΑΡ shahridan janubda *Γχιόλ* – *Ghiol* (turkcha shevada *gyol* / *kûl*?) nomli ko'l joylashgan. Bu ko'lga janubi-sharqdan va shimoli-sharqdan 2 ta uncha katta bo'lmagan daryo, g'arb tomondan esa nomlanmagan kattaroq daryo quyiladi.

Daryolar

Irtish. Xaritaning eng shimoli-sharqiy qismida ΜΡΑΣΚΙΡΟΙ – *Baskiri*, ya'ni boshqirdlarning yerlaridan sharqda *Ἰρτίς* – *Irtis* (Irtish) nomli daryoning bir qismi ko'rsatilgan, unga o'ng (shimol) tomondan 2 ta irmoq quyiladi. Undan shimolda esa ΜΕΡΟΣΤΝΣ ΣΙΒΙΡΕΙΑΣ, ya'ni Sibir nomli hududning bir qismi ko'rsatilgan. Daryoning o'ng qirg'og'ida birinchi va ikkinchi irmoqlarning unga quyilish yerlari

orasida ωυπά – *Uba* (?) nomli shahar joylashgan. Daryo oqimi bo'ylab pastroqda ikkinchi irmoqning quyilish yerida uning ikkala qarama-qarshi qirg'oqlarida σεμιπαλάτ – *Semipalat* (Semipalatinsk) va undan pastroqda Γιαμισουβ – *Iamisou* (?) nomli 2 ta shahar, undan ham pastroqda esa daryoning chap qirg'og'ida ταροκόγι – *Taroskoi* (?) nomli shahar joylashgan. Daryodan janubda nomlanmagan ko'l (Balxash) ko'rsatilgan, unga janubdan ἰλια – *Iliia* (Ili) nomli daryo quyiladi. Ko'l va daryo atroflarida ko'chmanchilarning o'tovlari joylashgan.

Emba, Ural, Volga. Kaspiy dengizidan shimolda shimoldan janubga 3 ta daryo oqadi (o'ngdan chapga): Γεμπι – *Gempi* (Emba), Γιαγκι – *Faic* (Ural) va βολγα – *Volga* (Volga). Bu 3 ta daryo oralig'idagi barcha yerlar KALMOUKOI (qalmiqlar) nomli ko'chmanchi qabilalarning o'tovlari bilan qoplangan.

Γιαγκι – *Faic* (Ural) daryosining Kaspiy dengiziga quyilish yeri yaqinida daryoning yuqoriroq qismida, uning o'ng qirg'og'ida Γιωργι Γοροδ – *Iurgi gorod* (?) nomli shahar, undan ham yuqoriroqda esa, daryoning chap qirg'og'ida ζαραιτζικ – *Saraitzic* (Caraychiq) nomli kichikroq qal'a joylashgan. Daryoning yuqori qismi lotincha yozuv bilan cheklangan, undan pastroqda esa daryo ikkiga bo'linib, keyin yana birlashgan, natijada o'rtada katta orol vujudga kelgan. Bu orolda τεκέ – *Teke* (?) nomli shahar joylashgan.

βολγα – *Volga* (Volga) daryosining Kaspiy dengiziga quyilish yeri yonida o'rtacha kattalikdagi bir qo'ltiq bo'lib, uning o'rtasida bir qancha orollar majmuasi ko'rsatilgan. Daryoning oqimi bo'ylab yuqoriroqda daryo ustida ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan* (Astraxan) shahri joylashgan. Daryoning chap (sharqiy) qirg'og'ida mazkur shahar qarshisida ΝΟΓΑΟΙ (no'g'aylar) ko'chmanchi qabilasining ovuli joylashgan. Daryoning o'ng (g'arbiy) qirg'og'ida esa ΜΕΡΟΣΤΟΥΚΟΥΜΠΑΝ – *Pars Couban* (Kuban) viloyatining bir qismi tasvirlangan.

Axan, Kura. Kaspiy dengizining g'arbiy sohilida g'arbdan sharqqa αξαν – *Axan* nomli daryo oqadi, u ΜΕΡΟΣΑΜΑΖΟΝΕΣ – *Dagestan* (Dog'iston) viloyatida tog'lar orasidan oqib o'tib, τζετζεν – *Tzetzen* orollari qarshisida va τωλεν – *Tulen* orolidan janubda dengizga quyiladi. Bu daryoning chap qirg'og'ida τερκι – *Terki* (?) nomli shahar joylashgan. G'arbiy sohilda ΔΕΡΜΠΕΝΤ – *Derbent* (Darband) shahridan janubda g'arbdan sharqqa Γιαζοβα – *Giazoba* nomli daryo ham oqib, dengizga quyiladi. Bu daryoning dengizga quyilish yeri yonida dengiz qo'nalg'asini anglatuvchi langar shaklidagi belgi qo'yilgan. ΜΡΑΚΟΥ – *Baku* (Baku) shahri joylashgan

Apsheron yarim orolidan janubda g'arbdan sharqqa *Κιῶρ* – *Kur* (Kura) nomli daryo oqib, o'ng tomondan unga bir irmoq qo'shiladi. Keyin bu daryo g'arbiy sohil bo'ylab cho'zilgan tog'lar orasidan o'tib, dengizga quyiladi.

Astrobod. Kaspiy dengizining sharqiy sohilida hech qanday daryolar yo'q. Faqat janubi-sharqiy sohilida janubi-sharqdan janubi-g'arbga *αστραμπαδ* – [*Astrabad*] (Astrobod) nomli daryo oqib, dengizning janubi-sharqiy burchagidagi kichik bir qo'ltiqqa quyiladi.

Sirdaryo. Orol dengiziga janubi-g'arb tomondan sharqdan g'arbga oquvchi *σιρδεργιας* – *Sirdergias* (Sirdaryo) nomli katta daryo quyiladi. Uning o'rta oqimida o'ng tomondan unga ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ (Tangritog') tog'laridan boshlanuvchi nomlanmagan daryo quyiladi. Sirdaryoning yuqori oqimida mazkur tog'larning o'rta va janubiy qismlaridan boshlanuvchi ikki katta daryoning qo'shilishidan katta daryo hosil bo'ladi.

Amudaryo (*ὠξος* – *Oxus*). Bu daryo xaritaning janubi-sharqiy burchagidagi tog'lar (Pomir) dan boshlanuvchi ikki daryo (Panj va Vaxsh) ning qo'shilishidan hosil bo'lib, shimoli-g'arb tomonga oqadi va Orol dengizi (ΘΑΛΑΣΣΑ ΑΡΑΛ – *Mare Aral*) quyiladi. Daryoning o'rta oqimidan pastda uning o'zani bo'ylab yunon va lotin tillarida: *Oxus qui oto Midergias* – “*Midergias* – *μίδεργιας* (Amudaryo) deb ataluvchi Oksus”, – deb yozilgan. Ahamiyatlisi shuki, Vatatzis Amudaryoning zamonaviy nomi bilan birga uning yunon adabiyotida ishlatilgan qadimgi nomini ham ishlatgan. Daryoning yuqori oqimida ΜΡΕΔΕΞΑΝ – *Badachsān* (Badaxshon) shahri yonida daryoga o'ng tomondagi tog'lar (Qorategin)dan oqib chiquvchi nomlanmagan irmoq (Vaxsh) kelib qo'shiladi. Daryoning o'rta oqimida o'ng tomondan unga *χοτζάνδ* – *Chogianđ* (Xo'jand) shahridan janubdagi tog'lardan oqib chiquvchi *καρασού* – *Carasui* (Qorasuv), ya'ni Zarafshon, nomli daryo qo'shiladi.

Ko'chmanchi xalqlar va qabilalar

Xaritada Kaspiy va Orol dengizlari atroflarida joylashgan bir nechta xalqlar va qabilalarning yashagan yerlari ko'rsatilgan. Minorali imorat yoki o'tov shaklidagi belgilar bilan ularning yashash tarzi, ya'ni o'troq yoki ko'chmanchi ekanligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari ularning diniy e'tiqodi – musulmon yoki g'ayridinligi, qaramligi – Rossiya, Tatariya, Mongoliya, Persiyaga qaram yoki mustaqil ekanligi, ularning tabiiy boyliklari – qimmatbaho toshlar yoki ma'danlar haqida ham ma'lumot berilgan.

Ko'chmanchilar yashagan hududlarga o'tov shaklidagi belgilar qoplangan. Kaspiy dengizidan shimolda ΚΑΛΜΟΥΚΟΙ (qalmiqlar) nomli ko'chmanchi qabilalar yashagan. Xaritada ular ikki yerda qayd etilgan: Astraxan (ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan*)dan sharqqa ketuvchi karvon yo'lidan shimolda va mazkur yo'ldan janubda Kaspiy dengizining shimoliy sohilida.

Shimoliy qalmiqlar xaritada №1 raqami bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №1 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan¹:

“Calmuci subjecti sunt Imperatorio & Monarchico potentissimæ Russicæ αυτοχρατοείας sceptro. Gens est numerosa, vitam agens sub tentoriis, bellicosa multa pecora possidens, quorum carnibus, lacte, & obviâ venatione se nutrit, pellibusque induitur. Religio omnino pagana est. Princeps jure successionis dominatur; atque dominantis tunc nomen, cum ibi suerim, erat Agiucachan”.

Tarjimasi:

“Qalmiqlar (*Calmuci* – *Καλμώκοί*) juda ham kuchli Rusiya imperiyasi imperatorining mustabid hokimiyatiga qaramdirlar. Bu o'tovlarda yashovchi ko'p sonli xalq. Ular urushga moyil. Ularda chorva-mollar ko'p. Ular mollarning go'shti va sutini iste'mol qiladilar, ov ham qiladilar. Kiyimlari mo'ynadan tikilgan. Ularning dini ko'p xudolik. Ularning hukmdori hokimiyatni meros qilish huquqiga ega. Men u yerda bo'lganimda, ularning hukmdori Agyujaxon (*Agiucachan* – *Αγιώσαχαν*) edi”.

Janubiy qalmiqlar xaritada №2 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №2 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Isti etiam sunt Calmuci, atque imperio patent. Iidem ipsis mores, eademque religio, ac præcedentibus. Regebat eos princeps, cum apud ipsos suerim, Dortzis nomine, qui, honoris causâ mihi petenti, ut vastos ibi campos, & ab ipsius militibus longe ab ipso degentibus inhabitatos securè pertransirem, diploma concessit Calmucorum characteribus exaratum, & ipsius sigillo munitum, quod quale est, hic subjicitur”.

Tarjimasi:

“Bular ham qalmiqlar (*Calmuci* – *Καλμώκοί*) bo'lib, ular ham Rusiya imperiyasiga qaramdirlar. Ularning urf-odatları, dini biz yuqorida aytib o'tgan qalmiqlarniki bilan bir xil. Men u yerdaligimda,

¹Chap tomondagi yunoncha izohlar bilan o'ng tomondagi lotincha izohlarning mazmuni bir xil. Shuning biz bu yerda va keyinchalik faqat lotincha izohlarning matnini keltiramiz.

ularning hukmdori Dortzis (*Dortzis – Δορτζις*) edi. Men o'sha urushqoq odamlar yashaydigan keng yerlardan xavfsiz o'tmoqchi ekanligimini aytib, undan [maslahat] so'raganimda u menga qalmiqlar yozuvi bilan yozilgan va uning shaxsiy tamg'asi bilan muhrlangan yorliq berdi, o'sha yorliq bu yerda (ya'ni xaritaning pastida – *Sh. K.*) ko'rsatilgan".

βολγα – Volga (Volga) daryosining chap (sharqiy) qirg'og'ida, uning Kaspiy dengiziga quyilish yerida ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan* (Astraxan) shahri qarshisida NOGAOI (no'g'aylar) ismli ko'chmanchi qabilalar yashagan.

Orol dengizidan shimolda va NTAG nomli viloyatdan shimoli-sharqda KARAKAΛΠΑΚΟΙ, ya'ni qoraqalpoqlar yashaganlar. Xaritada ular №3 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 3 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

"Cara-Calpaci, gens numerosa, bellicose, sui juris, etsi principem habens, quem tamen impudenter & barbarè tractant. Vita illis est, ut Calmucis; religio Mohammadano".

Tarjimasi:

"Qoraqalpoqlar (*Cara-Calpaci – Καρακαλπάκοί*) ko'p sonli xalq, urushga moyil. Ularning o'z hukmdori bor, lekin ular hech qachon unga bo'ysunishni istamaydilar va unga hurmatsizlik bilan qo'pol muomala qiladilar. Ular xuddi qalmiqlar singari yashaydilar. Ularning dini – islom".

Qoraqalpoqlardan janubda, Orol dengizidan sharqda va Sirdaryodan shimolda KAZAKΟΙ, ya'ni qozoqlar yashaganlar. Xaritada ular №4 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 4 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

"Cazaci ipsi etiam Mohammadani, & per omnia Cara Calpactic similes, iisque amici atque adjuutores in bellis; longè tamen numerosiores, & usque adeo bellicosi, ut, cum necesse sit, fæminæ etiam illorum armatæ exeant in aciem: ex quibus ego, dum vigeret bellum Bucharicum, duas armatas vidi, quas Bucharienses cum multis aliis hostibus captas, & in urbem adductas, longè ab humanitate crudeliter & immisericorditer trucidârunt".

Tarjimasi:

"Qozoqlar (*Cazaci – Καζάκοι*) ham musulmon va ular hamma narsada qoraqalpolarga juda o'xshaydilar. Ular bilan do'stona munosabatda va urush bo'lganda ularga yordam beradilar. Ularning soni juda ko'p, ular urushni shunchalik yaxshi ko'radilarki, hatto ularning xotinlari ham, kerak bo'lganda, qurol bilan jang maydoniga chiqadilar. Buxoroda urush ayni qizigan vaqtda men shunday qurolli

xotinlardan ikkitasini ko'rganman. Buxoroliklar boshqa ko'plab askarlar bilan birga ularni ham asirga olib, shaharga olib kelganlar, ularga juda ham qo'pol va shafqatsiz, odamgarchilikdan yiroq shaklda muomala qilganlar”.

Amudaryoning quyi oqimida uning Orol dengiziga quyilish yeri yonida uning o'ng sohilida, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida ΑΡΑΛΟΙ (orollar) nomli ko'chmanchi xalq yashagan. Uning yashagan hududi o'tov shaklidagi belgilar bilan qoplangan va №13 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №13 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Hæc gens Arali dicta, Mohammadana est, in tentoriis vitam degens, non longe à mare Aralico. Habet exiguum pagum sedem Chanis, qui, cum ibi essem, vocabatur Satemir sultan”.

Tarjimasi:

“Orol deb ataluvchi bu xalq musulmonlardir, ular Orol dengizi yaqinida o'tovlarda yashaydilar. Ularga qarashli bo'lgan hudud kichkina, men u yerda bo'lganimda, ularni Satemir-sulton (*Satemir sultan*) ismli xon boshqargan”.

Qalmiqlardan sharqda va qoraqalpoqlardan shimolda ΜΡΑΣΚΙΡΟΙ, ya'ni boshqirdlar yashaganlar. Ularga tegishli yozuv tagida yunon va lotin tillarida shunday izoh berilgan:

“ΜΡΑΣΚΙΡΟΙ – Baskiri, religione Mohammadani. Russico imperio subjecto” – “boshqirdlar, dini – islom. Rusiya imperiyasiga qaramdirlar”.

Qoraqalpoqlardan sharqda, xaritaning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan Irtish (*ἰρτίς – Irtis*) daryosi, ΜΕΡΟΣΤΝΣ ΣΙΒΙΡΕΙΑΣ (Sibir) hududi, *ἰλία – Ilia* (Ili) daryosi quyiluvchi nomlanmagan ko'l (Balxash) va *μπελοε οζερο – Beloe Ozero* (*Beloye ozero*)dan janubda, tepadan pastga tog' tizmasi cho'zilgan, uning yonbag'rlari bo'ylab esa yunon va lotin tillarida shunday yozilgan:

“ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ, ὡς και καράκαλμωκ ὀνομάζωοι – quos et Caracalmucos uokant (?)”

Tarjimasi:

“ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ, ularni qoraqalmiq deb ham ataydilar”.

Mazkur tog' tizmasining o'rta qismida ko'l (Issiq ko'l) joylashgan bo'lib, uning janubiy qirg'og'ida *Girken – Γιρκεν* (Girken) nomli shahar joylashgan. Shaharlar xaritada masjidli minora shaklidagi belgi bilan ko'rsatilgan. Tog'lardan va ko'ldan chapda yunon va lotin tillarida shunday izoh berilgan:

“(1) Qui Girgen inhabitant mercatores sunt et (2) Armorum artifices, sed qui imperium tenant, (3) Nomades sunt, ut id ex

tentorium schem- (4) atis ostendi".

Tarjimasi:

"Girgen (*Girgen* – Γίρκεν) [shahri] da yashovchilar savdogarlardir, ularni boshqaruvchilar esa ko'chmanchilardir. Men ularni o'tov shaklidagi belgi bilan ko'rsatdim».

Bu hudud xaritada № 5 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №5 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

"Condosidæ, gens ampla, atque bellicosa, moribus, vitæ genere, atque religione Calmucis similes. Eorum princeps sui juris est, & summâ ac liberrimâ potestate regnat. Regnum autem ordine successionis obtinetur. Apud hos est Dalailama dictus, religionem procurer, & omnem cultum idololatricum arditrio suo ordinat. Huic autem non modo facilè persuasi obedient, sed eum veluti prodigiorum operaturem cum timore colunt; sicut etiam eundem rejuvenescere asserunt, & quamcunque ipsi lubet ætatem induere, multaque alia his similia, & stultitiæ plena, de ipso Barbari essutiunt".

Tarjimasi:

«*Condosidæ* (*Κονδόσι*) ko'p sonli xalq, ular urushni yaxshi ko'radilar, ularning urf-odatları, hayot tarzi, dini qalmiqlar (*Calmukis* – Καλμώκων)nikiga o'xshadi. Ularning hukmdori o'zining shaxsiy qonunlarini o'rnatgan, u mustaqil oliy hukmdor va hech kimga qaram bo'lmasdan hukm suradi. Bu mulkda hokimiyat meros qilib qoldiriladi. Ularda Dalaylama (*Dalailama* – Δαλιλαμά) nomli shaxs bor, u diniy ishlarga mas'ul bo'lib, barcha ko'p xudolik diniy marosimlarini o'zining qarori bilan amalga oshiradi. Ular unga bo'ysunadilar, chunki ishonuvchandirlar, shuningdek, ular qo'rqib, uning mo'jizalar qilishiga ishonadilar. Ularning aytishicha, u [borgan sari] yosharib boradi va bu badaviylar u haqida deydilarki, u vaqt [va zamonlar] uzra xohlaganicha harakatlana oladi. Ular bunga o'xshash [turli xil] bema'niliklarga to'la yana ko'p hikoyalarni so'zlaydilar".

KONΔOΣIΔEΣ (*Condosidae*) tog'li o'lkasidan sharqda xaritaning eng chekkasidagi *Turphan* – Τώρφαν (*Turfan*) shahridan janubda va qirg'izlar (*KHRKIZOI*) yashagan yerlardan shimolda sharqqa, ya'ni xaritadan tashqariga, davom etgan bir o'ralgan hududning g'arbiy qismi tasvirlangan. Ko'chmanchilarning o'tovlari bilan to'la bu hudud ichiga ZOFXANNΣ deb yozilgan va №6 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №6 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

"Zofchan dux gentis Condosidis similis, quae vitam traducit sub

tentoriis. Apud hanc gentem crescit Rhabarbarum. Quæ etiam apud se solitum fuisse nasci Dalailamam antea jactabat”.

Tarjimasi:

“Zofxan (*Zofchan* – *Zοφχάν*) bu *Condosidae* ga o‘xshash bo‘lgan bir xalqning yetakchilaridir. Bu odamlar o‘tovlarda yashaydilar. Ularning yerida *Rhabarbarum* [nomli o‘simlik] o‘sadi. Shuningdek, ular burun zamonlarda Dalaylama ularning orasida tug‘ilgan, deb da‘vo qiladilar”.

Sirdaryoning boshlanish yeridan sharqda ZOFXANNΣ o‘ralgan hududidan janubda va KΑΣKAR (Koshg‘ar) shahridan shimolda xaritaning o‘ng tomondagi eng chekkasida sharq va janub tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan unchalik katta bo‘lmagan hudud ko‘rsatilgan, uning ichida KHRKIZOI, ya‘ni qirg‘izlar yashaganlar. O‘tov shaklidagi belgilar bilan to‘ldirilgan bu ko‘chmanchi xalq yashagan hudud №7 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 7 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Curgizi, gens non multum ampla, scenita tame nut reliqui. Religio Mohammadana. Nunc autem armis Condosidarum subjiciuntur”.

Tarjimasi:

“Qirg‘izlar (*Curgizi*)ning soni uncha ham ko‘p emas, ular ham boshqa ko‘chmanchilar singari o‘tovlarda yashaydilar. Ularning dini – islom. Hozir ular *Condosidae* hukmiga bo‘ysunadilar”.

Qirg‘izlar yashagan hududdan janubda KΑΣKAR shahri joylashgan, undan ham janubda esa *Sartae* (*σαρται*), ya‘ni sartlar yashaganlar.

Bu hudud xaritada №8 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 8 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Cascari, principatus urbibus, & pagis frequens. Praeteria magna multitudo Mohammadanorum in eo est. Olim paredat imperio Bucharico. Ibi reperitur aurum in arenis”.

Tarjimasi:

“Koshg‘ar (*Cascari*), qishloqlari ko‘p bo‘lgan bosh shahar. Ilgari unda juda ko‘p musulmonlar yashaganlar. O‘z vaqtida u Buxoro imperiyasidan mag‘lub bo‘lgan. [Odamlar] u yerdagi qumlardan oltin topadilar”.

Xiva va XORAΣAN (Xuroson) viloyati bilan chegarada TETZENT (Tejen) viloyatidan janubdagi tog‘larda KIΩPTOI, ya‘ni kurdlar yashaganlar. Ular yashagan hudud xaritada № 15 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 15 raqamli yunoncha va

lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Curdi gens est sat ampla atque bellicose, utens proprio idiomate. Vita sub tentoriis degitur, & quidem in montibus. Eadem est illis religio ac Persis, quorum imperio subjecti parent”.

Tarjimasi:

“Kurdlar (*Curdi – Κωρτι*) ko'p sonli va urushqoq xalq. Ularning o'z tili bor. Ular tog'larda o'tovlarda yashaydilar. Ularning dini forslarniki bilan bir xil. Ular forslarga qaram bo'lgandek ko'rinadi”.

XORΑΣΑΝ (Xuroson) viloyatidagi ΑΣΤΑΡΑΜΡΑΤ (Astrobod) tog'li o'lkasida ΚΑΤΖΑΡΟΙ, ya'ni kajarlar nomli ko'chmanchi xalq yashagan. Ular yashagan hudud xaritada №17 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №17 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Catzari scenitæ, bellicosi, sed exiguo numero. Persis omnino obediunt, quorum & religionem prositentur”.

Tarjimasi:

“Kajarlar (*Catzari – Κατζάροι*) – o'tov odamlari, urushqoq, lekin son jihatdan ular ko'p emas. Ular hamma ishlarda forslarga bo'ysunadilar va ularning diniga sig'inadilar”.

Xuroson tog'laridan shimoldagi ΤΕΤΖΕΝΤ (Tejen) nomli hududda sharqdan g'arbga tomon oqib o'tuvchi daryoning quyi oqimida tog'lar va cho'l orasida ko'chmanchilarning o'tovlaridan iborat ovul joylashgan. Bu ovul yulduzcha shaklidagi belgi bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi yulduzcha belgisi ostidagi yunoncha va lotincha izohlarda №14 raqamli izohdan keyin va №15 raqamli izohdan oldin kelgan yulduzcha bilan belgilangan alohida izohda turkmanlar (*Τωρκμένοι – Turcomanni*) haqida ma'lumot keltirilgan. Bu yozuvda shunday yozilgan:

“Turcomanni religionem profitentur Mohammadanam. Gens est populosa, sui juris, seorsim ab aliis vivens in tentoriis per genera, & tribus; item bellicosissima, & artem equestrem apprimè callens atque exercens; quippe quod eorum equi ad nativam pulchritudinem etiam celeritatem adjungunt. Præterea Turcommanni vitam sustentant venatu, latrocinio, & quod ab externis rapiunt”.

Tarjimasi:

“Turkmanlar (*Τωρκμένοι – Turcomanni*) islom diniga e'tiqod qiladilar. Bu ko'p sonli xalqning o'z qonunlari bor, ular boshqa xalqlardan alohida o'tovlarda jamoa va urug' bo'lib yashaydilar. Ular juda ham urushqoq va harakatchan xalq, otda yurish san'atini juda yaxshi egallaganlar. Shuning uchun ularning tabiiy go'zalliligiga ularning otlari yana tezlikni ham qo'shimcha qiladilar. Bundan

tashqari, ular ov qilish, qo'shni xalqlarni talon-toroj va xarob qilish bilan ham shug'ullanadilar”.

Turkiston

Sirdaryo (*σιρδεργιας* – *Sirdergias*) havzasining yuqori va o'rta qismlari xaritada TOUPKISTAN, ya'ni Turkiston nomi bilan belgilangan. Bu yerlar taxminan Qo'qon xonligining hududiga to'g'ri kelib, Farg'ona vodiysi, shuningdek, Sirdaryoning o'rta oqimidagi shaharlar va qishloqlarni o'z ichiga oladi. Sirdaryoning o'rta oqimida o'ng tarafdin unga KONΔΟΣΙΔΕΣ (Tangritog') tog'laridan oqib chiquvchi daryo (Aris) kelib quyiladi. Bu daryoning quyilish yerida uning o'ng qirg'og'ida *Turkistan* – *Τωρκιςταν* (Turkiston) nomli shahar joylashgan. Sirdaryo havzasining yuqori qismida uning chap (janub) tomondan quyiluvchi irmog'ining o'ng qirg'og'ida *Τασκεντ* – *Taskent* (Toshkent) nomli shahar joylashgan. TOUPKISTAN yozuvining tagida bir xil mazmundagi 4 qator yunoncha va 4 yarim qator lotincha yozuvlar bo'lib, ularda shunday yozilgan:

“(1) *Erat olim celebris provincia, quique cam inhabi-* (2) *tant Mohammadanisunt Sarta dicti, et* (3) *subjecti nunc quidem Casacis interdum vero Con-* (4) *dosidis, quatenus pro tempore alterutrorum arma* (5) *invalescunt*”.

Tarjimasi:

“Burungi zamonlarda bu mashhur viloyat edi, unda yashovchi musulmonlar ba'zan *Sartae* – *σαρται* (sartlar) deb atalar edilar. [Hozir] ular qaysi birining quroli kuchliroq bo'lishiga qarab, *Casacis* – *καζακων* (qozoqlar) yoki *Condosidis* – *κονδοσιδων* (qoraqalmiqlar) ga bo'ysunadilar”.

O'zbekiston

ὠξος – *Oxus* (Amudaryo) havzasining boshidan oxirigacha, ya'ni Pomir tog'laridan Orol dengizigacha ΩZMPEGISTAN (O'zbekiston) deb yozilgan. ΩZMPEGISTAN nomi xaritadagi boshqa viloyatlarning nomlariga nisbatan yirikroq harflar bilan yozilgan. Bu esa uning xaritada ko'rsatilgan boshqa viloyatlarga nisbatan yuqoriroq maqomga ega bo'lganligiga va ehtimol, butun O'rta Osiyo mintaqasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lganligiga ishora qiladi. Xaritadagi ΩZMPEGISTAN taxminan Buxoro va Xiva xonliklarining hududlariga to'g'ri keladi. Aynan shu yerlarda Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan o'zbek qabilalari yig'noq va zich yashaganlar.

“O'zbekiston” nomli mamlakat (xonlik)ning ichida Amudaryoning o'rta oqimida uning o'ng tomonida $\chi\omicron\tau\zeta\acute{\alpha}\nu\delta$ – *Chogiland* (Xo'jand) shahridan janubdagi tog'lardan oqib chiquvchi $\kappa\alpha\rho\alpha\varsigma\omicron\upsilon\acute{\iota}$ – *Carasui* (Qorasuv), ya'ni Zarafshon daryosining bo'yida, $\Sigma\text{AMARKANT}$ – *Samarcanda* (Samarqand) va MPOUXARIA – *Bucharia* (Buxoro) shaharlari joylashgan. Amudaryo oqimi bo'ylab pastroqda uning chap qirg'og'ida Καράκολ – *Caracol* (Qorako'l) nomli shaharcha joylashgan, undan janubda esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Γιατζη – *Iairzi* (?) nomli shahar joylashgan. Buxorodan janubda Qorasuv va Amudaryo oralig'ida Καρθί – *Carsi* (Qarshi) shahri, poytaxtdan shimoli-sharqda esa Qorasuvning o'ng qirg'og'iga yaqin yerda $\omega\omicron\varsigma\acute{\alpha}\nu$ – *Bostan* (Bo'ston) nomli shaharcha joylashgan. Samarqanddan janubda va Qarshidan janubi-sharqda Qorasuv va Amudaryo oralig'ida $\acute{\iota}\varsigma\acute{\alpha}\rho$ – *Isar* (Hisor) nomli shahar, undan janubi-sharqda esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Κωνδωζ – *Conduz* (Qunduz) nomli shahar joylashgan.

Xaritada Buxoro (MPOUXARIA – *Bucharia*) shahri №9 raqam, Samarqand ($\Sigma\text{AMARKANT}$ – *Samarcanda*) shahri esa №10 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №9 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Bucharia urbs haud exigua, metropolis Uzbeciae, & sedes Chanis, cujus tunc regnantis nomen, cum ibi peregrinarer, erat Abulfaizchan, idemque à subditis nuncupatur Padischah, estque religione Mohammadanus, ut tota Uzbecia. Illis est moneta propria, cujus aureus nummus nomine prædicti principis cusus ejusmodi est ex subjecto schemate. In hâc urbe, molestissima quædam species vermium è quibuscunque membris humanorum corporum enascitur, quos ad longitudinem duorum, & trium cubitorum patientes de die extrahunt”.

Tarjimasi:

“Buxoro (*Bucharia* – Μπωχαρία) – kichik shahar emas, O'zbekiston (*Uzbeciae* – $\omega\zeta\mu\pi\epsilon\gamma\iota\varsigma\tau\alpha\nu$) poytaxti va xon (*Chanis*)-ning qarorgohi. Men u yerdaligimda, hukmdorning ismi Abulfayxon (*Abulfaizchan*) edi, odamlar uni “podshoh” (*Padischah*) deb atar edilar. O'zbekiston barcha [aholisi] singari uning dini islom edi. Ularning o'z tangalari bo'lib, ular orasida mazkur hukmdor nomidan zarb etilgan siniq oltin tanga bor edi. Uning suratini [xaritaning] pastki qismida ko'rish mumkin. Bu shaharda juda ham zararli qurtlar bo'lib, ular inson tanasining turli yerlaridan yuzaga chiqadi, kasallar ularni har kuni ikki-uchtalab yulib tashlaydilar”.

Xarita chetlaridagi №10 raqamli yunoncha va lotincha

izohlarda shunday yozilgan:

“Samarcanda urbs est Uzbekiæ, & patria Tamerlanis, quem Turcicè vocant Mir Timurschahcurcan”.

Tarjimasi:

“Samarqand (*Samarcanda* – *Σαμαρκαντ*) – O‘zbekiston (*Uzbekiæ* – *ωζμπεγισταν*)dagi shahar, Temurbek (*Tamerlanis* – *Ταμερλάνι*) ning ota shahri, turkchada uni Mir Temur shoh Ko‘ragon (*Mir Timur schah curcan* – *ΜιρΤεμίρ άξάκ κωρεγέν*) deb ataydilar”.

Amudaryoning o‘rta oqimida uning chap qirg‘og‘ida Qarshi shahrining qarshisida *Τζαρτζοβ* – *Tzartzof* (Chorjov) nomli shahar, oqim bo‘ylab yuqoriroqda Hisordan janubda va Qunduzdan janubi-g‘arbda *άνχοϊ* – *Anchoi* (Andxoy) va ΜΡΑΛΧ – *Balch* (Balx) shaharlari, Andxoydan g‘arbda esa qumli cho‘lda ko‘chmanchi qabilaning ovuli joylashgan.

Amudaryoning yuqori oqimida o‘ng tomondagi tog‘lardan oqib chiquvchi irmoqning daryoga quyilish yeri yonida ΜΡΕΔΕΞΑΝ – *Badachschan* (Badaxshon) shahri joylashgan. Xaritada bu hudud №11 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №11 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Badachschan urbs olim subjecta imperio Bucharico, prope montes sita, qui ad ipsius jurisdictionem pertinent, & in quibus nascuntur pretiosi lapides Turcicè Lal, Græce & Italice Balacia, ab aliis verò Rubis Balais dicti; sunt etiam ejusdem jurisdictionis alii montes non longè ab urbe, ubi gignitur lapis, quem Turcæ Lazward, Europæi Lapis Lazuli vocant”.

Tarjimasi:

“Badaxshon (*Badachschan* – *Μπεδεξάνι*) – bu shahar ilgari Buxoro imperiyasiga bo‘ysungan, unga qarashli bo‘lgan tog‘lar yonida joylashgan, u yerdan qimmatbaho toshlar olib kelinadi, bu toshlar turkchada La‘l (*Lal* – *Λάλ*), yunoncha va italyanchada *Balasia* (*Μπαλασια*), boshqa xalqlarda esa *Rubis Balais* (*ρωμπιμπαλέ*) deb atalgan. Shahar yaqinida unga qarashi bo‘lgan boshqa tog‘lar ham bor, u yerdan [boshqa turdagi] tosh olib kelinadi, turklar uni *Lazward*, yevropaliklar esa *Lapis Lazuli* deb ataydilar”.

Amudaryoning oqimi bo‘ylab yuqoriroqda uning chap tomonidagi tog‘lar (Hindukush)ning shimoliy yonbag‘irlarida ko‘chmanchi o‘zbek qabilasining katta ovuli joylashgan, uning tagidagi yunoncha va lotincha yozuvda *ex Uzbekus secnitæ vel Nomades* – “o‘zbek qabilalaridan yoki ko‘chmanchilaridan [biri]” deb yozilgan.

Mazkur [Hindukush] tog‘larining orqa tomonida, ulardan

janubda, Mogollar, ya'ni Boburiylar Hindistoniga qarashli KAMPILA – *Cabil* (Kobul) nomli shahar joylashgan. Uning tagidagi yunoncha va o'ng tomonidagi lotincha yozuvda *Cabil, ubi consinia sunt India Mogolensis* – “Kobul, bu yer Mogollar Hindistoni chegarasidir” deb yozilgan.

Amudaryoning yuqori oqimidan shimoli-sharqda qirg'izlar yashagan yerdan janubda ΚΑΣΚΑΡ nomli shahar joylashgan, undan janubda esa *Sartae* (σαρται), ya'ni sartlar yashaganlar. ΚΑΣΚΑΡ shahridan shimolda Beret (*Beret – μπερέτ*) nomli shaharcha, undan janubda nomlanmagan shaharcha, undan va Γκιόλ – *Ghiol* nomli ko'ldan janubi-g'arbda esa Kiosun (*Kiosun – κιοζών*) nomli shaharcha joylashgan. Bu hududning hammasi xaritada №8 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №8 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Cascari, principatus urbibus, & pagis frequens. Præterea magna multitudo Mohammadanorum in eo est. Olim parebat imperio Bucharico. Ibi reperitur aurum in arenis”.

Tarjimasi:

“Koshg'ar (*Cascari – Κασκάρι*) bu mulkda shaharlar va qishloq yerlar ko'p. Unda ko'p sonli musulmonlar yashaydi. Ilgari ular Buxoro imperiyasiga bo'ysunganlar. U yerdagi qumlarda oltin topilgan”.

Amudaryo havzasining quyi qismida daryoning Orol dengiziga quyilish yeri yaqinida uning o'ng qirg'og'idagi yerlarda ΑΡΑΛΟΙ (orollar) nomli ko'chmanchilar yashaganlar. Ulardan janubi-sharqda daryoning oqimi bo'ylab yuqoriroqda uning chap qirg'og'ida birin-ketin 4 ta shahar joylashgan: κωρλαντ – *Curlant* (Gurlan), όργενς – *Orgens* (Urganch), χαναχά – *Chanacha* (Xonaqa) va χαζαρις – *Chozaris* (Hazorasp), yana ham janubi-sharqda o'sha chap qirg'oqning o'zida XIVA – *Chiva* (Xiva) nomli katta shahar joylashgan. Janubda u Amudaryoning butun chap qirg'og'i bo'ylab Hindukush tog'lariga qadar cho'zilgan katta qumli cho'l bilan tutash. Xaritada Xiva va uning atroflari №12 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi №12 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Chiva urbs Uzbeciæ, & sedes Chanis, qui etiam titulum habet Padischahi. Gens est omnino similis Uzbeciis Bucharicæ. Chanis, qui, ibi me peregrinante, regnabat, nomen erat Elbars Chan. Habet & propriam monetam, cujus nummus æneus hic adscribitur”.

Tarjimasi:

“Xiva (*Chiva – Χίβα*) – O'zbekiston (*Uzbeciæ – ωζμπεγιςταν*)

dagi shahar, xon (*Chanis*) ning qarorgohi, [odamlar] uni “podshoh” (Padischahi) deb ham ataydilar. Odamlar hamma narsada Buxoro (*Buchariae*) o‘zbeklari (*Uzbekiis – ὠξμπέγδες*) bilan juda o‘xshashdirlar. Men u yerdaligimda, hukm surayotgan xonning ismi Elbarsxon (*Elbars Chan – Ελμπαρσχάν*) edi. Uning o‘z tangalari bor edi, bu yerda uning mis tangasi tasvirlangan”.

Janubi-sharqda Xiva shahridan daryo oqimi bo‘ylab keyingi aholi maskani Amudaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan *φιτνέ – Phitne* (?) shaharchasidir. Daryoning qarama-qarshi o‘ng qirg‘og‘ida oqim bo‘ylab yuqoriroqda *κιζκαλε – Kilziale* (Qizqal‘a) shaharchasi joylashgan. Daryoning o‘ng tomonida ΑΡΑΛΟΙ (orollar) qabilasining ovulidan boshlab *Carasui* (Qorasuv) daryosining Amudaryoga quyilish yerigacha katta qumli cho‘l (Qoraqum) cho‘zilgan, uning ustiga ΕΣΜΕΓΙΟΛΟΥ – *Esmegiolu* deb yozilgan.

Xiva shahriga janubdagi Xuroson viloyatidan kelgan karvon yo‘li bu yerdan g‘arbga burilib, *ἀμπταρ – Ambar* shahridan o‘tadi, bu shaharning chekkasida ko‘chmanchilarning ovuli joylashgan. Bu yerdan karvon yo‘li shimoli-g‘arbga Orol dengizi tomonga davom etib, qumlar orasida joylashgan Ko‘hna Urganch (*Kiochne Orgenz*) nomli shahardan o‘tadi. Uning yonidagi yunoncha va lotincha yozuvlarda: *Kiochne Orgenz ubinem oune habitat* – “Ko‘hna Urganch, hozir bu yerda hech kim yashamaydi”, deb yozilgan. Ko‘hna Urganch shahri va Amudaryoning Orol dengizigi quyilish yeri orasidagi yerlar № 14 raqam bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi № 14 raqamli yunoncha va lotincha izohlarda shunday yozilgan:

“Mons, in quo à multis dicitur auri metallum esse”.

Tarjimasi:

“Tog‘, ko‘p odamlarning aytishicha, unda oltin bor”.

Bundan keyin karvon yo‘li Orol dengizining g‘arbiy sohili bo‘ylab shimol tomonga yurib, NTAG (Ust-yurt) nomli o‘ralgan hududdan o‘tadi. Karvon yo‘lining bu qismida 6 ta aholi maskani bor: NTAG hududiga kirishdan oldin yo‘ldan o‘ng tarafda joylashgan nomlanmagan maskan, keyin NTAG hududi ichidagi *τωργος – Turris* (Minora), keyin *παλαιον τιόικοδομμμα – vetus quoddam adificium* (Eski bino), keyin qumlar o‘rtasida ΣΑΜ – *Sam* nomli yer, keyin 2 ta nomlanmagan maskan – biri NTAG hududining ichida, ikkinchisi undan tashqarida. Keyin karvon yo‘li Kaspiy dengizining shimoliy sohilidagi ΚΑΛΜΟΥΚΟΙ (qalmiqlar) yashovchi yerlardan o‘tib, ΑΣΤΡΑΧΑΝ (Astraxan) dengiz qo‘nalg‘asiga olib boradi.

Orol dengizidan shimol va g‘arbda joylashgan NTAG (Ust-yurt) hududi, hamma tarafdin qirlar va baland bo‘lmagan tog‘lar

bilan o'ralgan. Janubda bu hudud Orol dengizining janubiy sohiliga qadar cho'zilgan va deyarli Amudaryoning quyilish yerigacha yetib boradi. NTAG nomining tagida "T" shaklidagi belgi (bino) yonida 2 qator yunoncha va v 2 qator lotincha yozuvlarda shunday yozilgan:

"(1) Edisicum quoddam vetus et (2) cuca illud sepulchra".

Tarjimasi:

"Bu eski bino, uning atrofida maqbaralar».

NTAG hududining o'rtasidagi ΣAM – Sam qumligidan chapda 10 qator yunoncha va o'ngda 7 qator lotincha yozuvlar joylashtirilgan, mazmuni bir xil bo'lgan bu yozuvlarda shunday yozilgan:

"(1) Hujus montis sex horarum est (2) ascensio tantumque ab altero laten (3) descensio, ejus vero summitas om- (4) nino plana est, in qua multum (5) Rhapontici crescit et multa (6) annenta silvestrium ju- (7) mentorum".

Tarjimasi:

"Bu tog'ga ko'tarilish 6 soat vaqtni oladi va boshqa tarafdin undan tushish ham shuncha [vaqt oladi]. Uning tepasi tekislikdan [iborat]. U yerda ko'p miqdorda Rhapontici o'sadi, u yerda chorva mollar ko'p [o'tlaydi]".

Xuroson

ΩZMPEGISTAN mamlakatidan janubda va Xuroson tog'lari-dan shimolda GΝΣ ΨAM. ΜΩΔΝΣ nomli qumli cho'l, mazkur tog'lar-dan janubda esa ΧΟΡΑΣΑΝ (Xuroson) viloyati joylashgan.

Mazkur cho'ldan janubda Xuroson tog'laridan shimolda TETZENT (Tejen) nomli hudud ko'rsatilgan, uning ichida tog'larning yonbag'rida *μπαμπарт* – Babart (?) nomli aholi maskani joylashgan. Ushbu hududdan sharqdan g'arbga tomon tog'lar boshlangan 3 ta irmoqdan hosil bo'luvchi daryo oqib o'tadi va qumlikka singib ketadi. Daryoning yuqori oqimida uning chap qirg'og'i bo'ylab *χειμαρρόι* – Torrenies (?) deb yozilgan, uning quyi oqimida esa tog'lar va cho'l orasida ko'chmanchilarning o'tovlaridan iborat ovul joylashgan. Bu ovul yulduzcha shaklidagi belgi bilan belgilangan. Xarita chet-laridagi yulduzcha belgisi ostidagi yunoncha va lotincha izohlarda turkmanlar (*Τωρκμάνοι* – Turcomanni) haqida ma'lumot keltirilgan.

Xiva shahridan janub tomonga ketgan karvon yo'li GΝΣ ΨAM. ΜΩΔΝΣ nomli qumli cho'lni kesib o'tib, TETZENT (Tejen) nomli tog'oldi hududga va uning yonbag'ridagi *μπαμπарт* – Babart (?) nomli aholi maskaniga yetib boradi. Bu yerdan karvon yo'li tog'dan

oshib o'tib, XORAΣAN viloyatidagi MEΣET – *Meschet* (Mashhad) shahriga olib boradi. TETZENT (Tejen) va MEΣET – *Meschet* (Mashhad) shaharlarining orasidagi tog'larda Xiva (XIBA) va Xuroson (XORAΣAN) chegarasida KIΩPTOI, ya'ni kurdlar yashaganlar.

MEΣET – *Meschet* (Mashhad) shahridan karvon yo'li g'arb tomonga tog'lar orasidan yurib, *Nisabur* va *Sabzavar* shaharlaridan o'tadi. Yo'l bo'ylab yana ham g'arbgga yurilsa, *Elchaki*, *Mezinan* va *Meame* nomli qishloqlar keladi. Bu qishloqlardan shimol tomondagi tog'li o'lkada KATZAPOI (kajarlar) nomli ko'chmanchi xalq yashagan. Shundan keyin yo'l *Schahrud*, *Esraf* va *Sari* shaharlaridan o'tib, Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan MIZANΔAPAN viloyatidagi *μραλφρός* – *Balfros* nomli shaharga olib boradi.

Xaritada Nishopur (*Nisabur* – *Νισαβώρ*) shahri №16 raqami bilan belgilangan. Xarita chetlaridagi yunoncha va lotincha izohlarda №16 raqam ostida shunday yozilgan:

“Nisabur urbs Persiæ in provincia Chorasanae. In vicinis hujus urbis montibus nascitur lapis, quem Turcæ Peiruzam, Europæi Turcoin appellant”.

Tarjimasi:

“Nishopur (*Nisabur* – *Νισαβώρ*) – Fors mamlakati (*Persiae*) ning Xuroson (*Chorasanae* – *χωρασνίω*) viloyatidagi shahar. Shahar yaqinida joylashgan tog'lardan [qimmatbaho] tosh olib kelinadi, turklar uni *Peiruzam*, yevropaliklar esa *Turcoin* deb ataydilar”.

Kaspiy dengizi sohillari

Xuroson viloyatidan karvon yo'li Kaspiy dengizining janubiy sohili bo'ylab g'arb tomonga ketib, TOUNIKAPIN viloyatidagi *ἀμιλ* – *Amil* shahridan o'tib, KIΛAN tog'li o'lkasidagi *Reschd* shahriga olib boradi. Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilida AΣTARAMPAT (Astrobod) shahri va dengiz qo'nalg'asi, undan janubi-sharqda esa KATZAPOI (kajarlar) ko'chmanchilari yashagan tog'li o'lka joylashgan. Undan g'arbda MIZANΔAPAN, TOUNIKAPIIN va KIΛAN shaharlari va viloyatlari, KIΛAN dan janubda esa YPKANHA – *Hyrkania* tog'li o'lkasi joylashgan.

Bu yerda karvon yo'li ikki ajralgan: biri YPKANHA – *Hyrkania* tog'li o'lkas orqali janubga, ikkinchisi Kaspiy dengizining g'arbiy sohili bo'ylab shimolga yurib, *Κιώρ* – *Kur* (Kura) daryosidan va MPAKOU – *Baku* (Baku) shahri yaqinidan o'tgan, va ΔEPMPENT – *Derbent* (Darband) shahridan janubda joylashgan nomlanmagan dengiz qo'nalg'asiga yetgan. Mazkur karvon yo'li boshidan oxirigacha Kaspiy dengizining g'arbiy sohili bo'ylab cho'zilgan tog'lar

yonidan o'tgan.

ΜΠΑΚΟΥ – *Baku* (Baku) shahri joylashgan yarim orol (Apsheron) yarim orol qarshisida Κιῶρ – *Kur* (Kura) daryosidan shimolda, uning chap tomonida daryo bilan karvon yo'li oralag'ida tepadan pastga yozilgan 2 qator yunoncha va 2 qator lotincha yozuvlarda shunday deyilgan: *Via qua anno 1716 Ispahanum abivi* – “Men bu yo'ldan 1716 [yilda] Isfahonga borganman”.

Karvon yo'lining oxiridagi dengiz qo'nalg'asi yonida Kaspiy dengiziga Γιάζοβά – *Giazoba* nomli daryo quyiladi. Dengiz qo'nalg'asidan shimolda ΔΕΡΜΠΕΝΤ – *Derbent* (Darband) shahrigacha va undan keyin ham sohil bo'ylab quruqlikda yo'l yo'q. Darbanddan shimolda sohil bo'ylab cho'zilgan ΜΕΡΟΣΑΜΑΖΟΝΕΣ nomli viloyat joylashgan, bu nomning tagidagi yunoncha va lotincha izohda: *Pars Amazonum quae Dagestan* – “Dog'iston deb [ataluvchi] Amazon [viloyatining] bir qismi”, deb yozilgan. Bu viloyat hududida Kaspiy dengiziga g'arbdagi tog'lardan oqib keluvchi ἄξαν – *Axan* nomli daryo quyiladi. Bu daryoning chap qirg'og'ida τερκί – *Terki* (Terki) nomli shahar joylashgan.

Mazkur karvon yo'lining oxiridagi nomlanmagan dengiz qo'nalg'asidan shimol tomonga ketuvchi dengiz yo'li boshlanib, bu yo'ldan kemalar Kaspiy dengizining shimoli-g'arbiy sohilida Volga daryosining bo'yida joylashgan ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan* (Astraxan) shahriga boradi. Undan keyin yana karvon yo'li boshlanib, shimoli-sharq tomonga davom etadi. Bu yo'l Kaspiy dengizining shimoliy sohili bo'ylab avval ΝΟΓΑΟΙ (no'g'aylar) yashagan yerlardan, keyin ΚΑΛΜΟΥΚΟΙ (qalmiqlar) yashagan yerlardan o'tib, ΓΙΑΥΙΚ – *Faic* (Ural) va Γεμπι – *Gempi* (Emba) daryolaridan kechib o'tadi. Bu ikki daryo oralig'ida karvon yo'lidan shimolda bir gumbazli bino tasvirlangan, uning yonidagi 2 yarim qator yunoncha va 2 yarim qator lotincha izohda shunday yozilgan:

“(1) *Pyramis inqua ut donaria appensa* (2) *sunt plurima Victorum Barbarorum* (3) *arma*”.

Tarjimasi:

“Ehrom, g'olib bo'lgan badaviylarning ko'plab qurollari unga sovg'a sifatida olib kelinadi”.

Keyin karvon yo'li ΝΤΑΓ hududi orqali Orol dengizi tomon davom etadi. Bu yo'lda Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy burchagidagi ΓΝΙΛΟΙ ΖΑΛΙΒ qo'lig'ining qarshisida *Aqua* – ὕδωρ (Suv manbayi) nomli maskan joylashgan. Uning pastida yo'ldan janubda 2 qator yunoncha va 1 yarim qator lotincha izoh bo'lib, unda shunday yozilgan:

“(1) *Via, qua meum circum mare Caspium (2) iter designatur*”.

Tarjimasi:

“Mening Kaspiy dengizi atrofidan yurgan yo‘lim ko‘rsatilgan”.

Aqua – ὕδωρ (Suv manbai) dan keyin yo‘l janubi-sharqqa burilib, ΝΤΑΓ hududi tomon ketgan. Bu yerda ham yo‘ldan shimoli-sharqda 2 qator yunoncha va 2 qator lotincha izoh bo‘lib, unda shunday yozilgan:

“(1) *Hinc prater alia pericula, etiam pericu- (2) lum exraritate aquæ emergens incipit*”.

Tarjimasi:

“Boshqa xavf-xatarlardan tashqari bu yerdan suv tanqisligi xatari boshlanadi”.

Xulosa

Vasilios Vatatzisning safarnomasi haqidagi maqolamizda biz unda keltirilgan ma‘lumotlarni xaritada izohlar bilan solishtirgan edik. Bu solishtiruv shuni ko‘rsatdiki, xarita safarnomada keltirilgan ma‘lumotlarning suratdagi ifodasidir, undagi izohlar esa safarnomadagi ma‘lumotlarni to‘liq tasdiqlaydi va ayrim yerlarda ularga aniqlik kiritadi. Shu bilan birga, xarita alohida va mustaqil manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu ikkala manbada bir-biriga zid ma‘lumotlar ham uchraydi. Masalan, safarnomada “Qalmiqlarning ayollari, kerak bo‘lganda, erkaklar qatori qo‘liga qurol oladi”, deb yozilgan. Xaritada qalmiqlarga tegishli izohda esa bu gap yo‘q. Xaritada qozoqlarga tegishli izohda xuddi shunday gap bor, safarnomada esa yo‘q. Safarnomada qozoqlar va qoraqalpoqlar birga qo‘shilib “qirig‘izlar” deb atalganlar, deb yozilgan. Xaritada esa qirig‘izlar Koshg‘ardan shimolda yashovchi va *Condosidae* hukmiga bo‘ysinuvchi alohida bir ko‘chmanchi qabila sifatida ko‘rsatilgan.

Xaritaning biz uchun eng ahamiyatli jihati shuki, unda Orol dengizidan boshlab Pomir tog‘lariga qadar hududlarni o‘z ichiga oluvchi Amudaryo havzasidagi barcha yerlar ΩΖΜΡΕΓΙΣΤΑΝ (*Uzbekia*), ya‘ni O‘zbekiston mamlakati deb ko‘rsatilgan. Bu mamlakatning ichida ΕΣΜΕΓΙΟΛΟΥ, Xorazm hududlarida ΜΡΟΥΧΑΡΙΑ (*Bucharia*) – Buxariya, Amudaryoning yuqori oqimi havzasida esa ΜΡΕΔΕΞΑΝ (*Badachs*) – Badaxshon singari viloyatlar, shuningdek, ΧΙΒΑ (*Chiva*) – Xiva, ΣΑΜΑΡΚΑΝΤ (*Samarcanda*) – Samarqand, ΜΡΑΛΧ (*Balch*) – Balx singari katta shaharlar hamda ΚΑΡΘΙ (*Carsi*) – Qarshi, ΧΟΤΣΑΝΔ (*Chogian*) – Xo‘jand, ΚΩΝΔΩΣ (*Conduz*), ya‘ni Qunduz nomli kichikroq shaharlar ko‘rsatilgan. Amudaryoning Orol dengiziga quyilish yerida esa ΑΡΑΛΟΙ, ya‘ni

orolliklar istiqomat qilganligi ko'rsatilgan.

ΩΖΜΡΕΓΙΣΤΑΝ (O'zbekiston) mamlakatining nomi xaritada boshqa viloyatlarning nomlariga nisbatan yirikroq harflar bilan yozilgan. Bu esa shuni ko'rsatadiki, ushbu viloyat xaritada ko'rsatilgan boshqa barcha viloyatlar ichida alohida maqomga ega bo'lgan va butun O'rta Osiyoning siyosiy markazi vazifasini o'tab kelgan. Bu mamlakatning hududlari taxminan Buxoro va Xiva xonliklarining hududlariga to'g'ri keladi. Xaritadagi izohlarga ko'ra, ilgari ΜΡΕΔΕΕΑΝ – *Badachsān* (Badaxshon) va ΚΑΣΚΑΡ – *Cascari* (Koshg'ar) ham Buxoro imperiyasi (*Μπωχαρικῆς ἑξωσίας – imperio Bucharico*), ya'ni O'zbekistonga qarashli yerlar bo'lgan.

Buxoro imperiyasi (*Μπωχαρικῆς ἑξωσίας – imperio Bucharico*) deganda Vasilios Vatatzis butun O'rta Osiyo mintaqasini egallagan Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi o'zbeklar mamlakati, ya'ni O'zbekistonni nazarda tutgan. Vasilios Vatatzis safarnomasida ham butun O'rta Osiyo mintaqasi, shu jumladan, Xorazm (Xiva xonligi), Turkiston (Qo'qon xonligi), Koshg'ar (Sharqiy Turkiston), Buxoro, Samarqand, Balx va Badaxshon (Buxoro xonligi), yunon tilida *ωζμπεγισταν* (Özbekistan), lotin tilida esa *Uzbeciae* (Uzbekia) mamlakati deb atalgan.

Xulosa

Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi o'zbek qabilalari XVI asrdan boshlab O'rta Osiyoda siyosiy hokimiyatga ega bo'lib kelganlar. Ular mahalliy turkiy tilli o'troq aholining yuksak madaniyati va adabiy tilini qabul qilib, Temuriylar va ulardan oldingi turk sulolalarining davlatchilik an'alarini davom ettirganlar. XVI – XVIII asrlarda ularning yaxlit hududi, yagona yozma adabiy tili va madaniyati mavjud bo'lgan. Shuning uchun o'sha davrning siyosiy xaritalari va globuslarida bu mamlakat Usbeck, Usbekia va Özbekistan nomlari bilan atalgan. Demak, O'zbekiston toponimi XVI – XVIII asrlarda va hatto 1865-yil, ya'ni ruslar istilosiga qadar Turon va Turkiston atamalari bilan ma'nodosh atama sifatida butun O'rta Osiyo mintaqasiga nisbatan ishlatilgan. Shu bilan birga, "o'zbek" atamasi ham birlashtiruvchi etnosiyosiy va etnomadaniy ma'noga ega bo'lib, O'rta Osiyo mintaqasida yashovchi barcha xalqlar uchun superetnos vazifasini bajarib kelgan.

Adabiyotlar

Batatzis 1732 – *Charta, inqu'a cruditis spectanda exhibetur pas Asiae [...]*
Tabula Maris Caspii et Maris Aral, Karta, di es tois filomathesi
parekhetai eidein meros ti tes Asias . . . Nin proton tipois ekdo-

theisa par' ema, Basileia Batatzis. . . Scale [1: 7 500 000]; 38 x 32,5 cm. / Ed. J. Senex. London, 1732.

- Kamoliddin 2005 – Kamoliddin Sh. S. “Vasilio Vatachening O’rta Osiyo xaritasi haqida”. *Moziydan sado* (Exo istorii, Echo of history), 3 (27): 36 – 41.
- Kamoliddin 2011 – Shamsiddin Kamoliddin. “The Map of Central Asia by Basilio Batatzi (1730)”. *Central Eurasian Studies: Past, Present and Future*. Editors H. Komatsu, S. Karasar, T. Dadabaev, G. Kurmangalieva Ercilasun. T. C. *Maltepe Üniversitesi Yayinlari*, 46 (2011/5). 315 – 339. Istanbul, Maltepe University.
- Kamoliddin 2012 – Shamsiddin Kamoliddin. “Two maps of Central Asia of the First Half of 18th Century”. *New Sources on the Historical Ethno-Geography of Central Asia*. Saarbrücken: LAP.
- Kamoliddin 2020 – Kamoliddin Sh. S. “O‘zbekistonning tarixiy xaritalari”. *INFOLIB axborot-kutubxona jurnali* 3: 54 – 61.
- Legrand 1886 – Emile Legrand (ed.), *Voyages de Basile Vatace en Europe et en Asie*, Paris: E. Leroux. 183 – 295 (Nouveaux Melanges Orientaux, Memoires texts et traductions, publie par les professeurs de l’Ecole Speciale des langues orientales vivantes).
- Sariyannis 2014 – Marinos Sariyannis. “An Eighteenth-Century Ottoman Greek’s Travel Account in Central Asia”. *CIEPO Interim Symposium: The Central Asiatic Roots of Ottoman Culture*. 47 – 60. Ed. by İ. Şahin, B. Isakov, C. Buyar. Istanbul: İstanbul: İstanbul Esnaf ve Sanatkarlar Odalari Birliği (ISTESOB).
- Камолиддин 2012 – Камолиддин Ш. С. *Две карты Средней Азии первой половины XVIII в. Новые источники по исторической этно-географии Средней Азии*. Saarbrücken: LAP.
- Югай 1966 – Югай Р. Л. *История развития географических и картографических представлений о пустыне Кызылкум (с древнейших времен до середины XIX в.)*. Ташкент: Фан.

Map of Uzbekistan in the Middle Ages

Shamsiddin KAMOLIDDIN¹

Map of Vasilios Vatatzis

Abstract

The article discusses the map of Central Asia by the Greek traveler Vasilios Vatatzis, "Charta, in qua cruditis spectanda exhibetur pas Asiae [...] Tabula Maris Caspii et Maris Aral" ("Map of the Caspian Sea and the Aral Sea"), published in London in 1732. The original manuscript copy of this unique bilingual map, which is very rich in inscriptions in Greek and Latin, is stored in the maps collection of The Royal Geographic Society in Great Britain. Vasilios Vatatzis traveled through Central Asia in 1727-1730 and wrote a travelogue in Greek. In one of the issues of the journal last year, we talked about this travelogue and the information in it. The annotations provided on this map fully confirm the information given in the travelogue and clarify the information in some places. At the same time, the map serves as a separate and independent source.

Key words: *Vasilios Vatatzis, travel to Central Asia, historical maps, Bukhara Empire, Uzbekistan, Shaibanids state.*

References

- Batatzis 1732 – *Sharta, in qu'a cruditis spectanda exhibetur pas Asiae [...] Tabula Maris Caspii et Maris Aral, Karta, di es tois filomathesi parekhetai eidein meros ti tes Asias . . .* Nin proton tipois ekdotheisa par' ema, Basileia Batatzis. . . Scale [1: 7 500 000]; 38 x 32,5 cm. / Ed. J. Senex. London, 1732.
- Kamoliddin 2005 – Kamoliddin Sh. S. "Vasilio Vatachening O'rta Osiyo xaritasi haqida". *Moziydan sado* (Exo istorii, Echo of history), 3 (27): 36 – 41.
- Kamoliddin 2011 – Shamsiddin Kamoliddin. "The Map of Central Asia by Basilio Batatzi (1730)". *Central Eurasian Studies: Past, Present and Future*. Editors H. Komatsu, S. Karasar, T. Dadabaev, G. Kurmangalieva Ercilasun. T. C. *Maltepe Üniversitesi Yayınları*, 46 (2011/5). 315 – 339. Istanbul, Maltepe University.

¹ Shamsiddin S. Kamoliddin – Dsc, Professor, Oriental University.

E-mail: shamskamol@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2469-8717

For citation: Kamoliddin, Sh. S. 2025. "Map of Uzbekistan in the middle ages". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 93 – 124.

- Kamoliddin 2012 – Shamsiddin Kamoliddin. “Two maps of Central Asia of the First Half of 18th Century”. *New Sources on the Historical Ethno-Geography of Central Asia*. Saarbrücken: LAP.
- Kamoliddin 2020 – Kamoliddin Sh. S. “O‘zbekistonning tarixiy xaritalari”. *INFOLIB axborot-kutubxona jurnali* 3: 54 – 61.
- Legrand 1886 – Emile Legrand (ed.), *Voyages de Basile Vatace en Europe et en Asie*, Paris: E. Leroux. 183 – 295 (Nouveaux Melanges Orientaux, Memoires texts et traductions, publie par les professeurs de l’Ecole Speciale des langues orientales vivantes).
- Sariyannis 2014 – Marinos Sariyannis. “An Eighteenth-Century Ottoman Greek’s Travel Account in Central Asia”. *CIEPO Interim Symposium: The Central Asiatic Roots of Ottoman Culture*. 47 – 60. Ed. by İ. Şahin, B. Isakov, C. Buyar. Istanbul: İstanbul: İstanbul Esnaf ve Sanatkarlar Odalari Birliği (ISTESOB).
- Kamoliddin 2012 – Kamoliddin Sh. S. *Dve kartы Sredney Azii pervoy poloviny XVIII v. Новые istochniki po istoricheskoy etno-geografii Sredney Azii*. Saarbrücken: LAP.
- Yugay 1966 – Yugay R. L. *Istoriya razvitiya geograficheskix i kartograficheskix predstavleniy o pustыne Kyzыlkum (s drevneyshix vremen do seredinы XIX v.)*. Tashkent: Fan.